

PIRIMQUL QODIROVNING “OLMOS KAMAR” ROMANIDA RAMZIY MA’NO VA BADIY DETALLARNING QO’LLANISHI

Mutalibova Muxtaram Abduraxim qizi

Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:

o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

<https://orcid.org/0009-0003-0498-4182>

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarning muhim elementlaridan biri bo‘lgan ramziy ifodalar va badiiy detallar haqida xususan Pirimqul Qodirovning “Olmos kamar” romanida ularning qo‘llangan o‘rinlari, ramziy ma‘nolari haqida so‘z boradi. Shu bilan bir qatorda maqolada ramziy ma‘nolarning turlari, vazifalari va asarda qo‘llanilishi hamda haqida aytiladi va romanda keltirilgan detallar asar kompozitsiyasi, uning mazmuni, undagi ijtimoiy - siyosiy masalalarni yoritishdagi o‘rni va detalning badiiy asarlardagi funksiyasi, turlari tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ramz, san‘at, xususiyat, timsol, vosita, detal, tafsilot, predmet detal, portret detal, nutqiy detal, obraz, ramziylik, holat, his-tuyg‘u ifodasi.

THE USE OF SYMBOLIC MEANING AND ARTISTIC DETAILS IN PIRIMKUL KADYROV'S NOVEL "ALMAS BELT."

Abstract: This article discusses symbolic expressions and artistic details, which are important elements of literary works, particularly their use and symbolic meanings in Pirimqul Qodirov’s novel “Olmos kamar”. Along with this, the article discusses the types of symbolic meanings, their functions, and their use in the work, and the details presented in the novel, the composition of the work, its content, its role in illuminating socio-political issues, and the function and types of detail in literary works are investigated.

Keywords: Symbol, art, characteristic, symbol, tool, detail, detail, object detail, portrait detail, speech detail, image, symbolism, state, expression of emotion.

ПРИМЕНЕНИЕ СИМВОЛИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ДЕТАЛЕЙ В РОМАНЕ ПИРИМКУЛА КАДЫРОВА “АЛМАЗНЫЙ ПЯСОК”

Аннотация: В данной статье рассматриваются символические выражения и художественные детали, являющиеся важными элементами литературного произведения, в частности, их применение и символические значения в романе

Пиримкула Кадырова “Алмазный пояс” Наряду с этим, в статье рассматриваются виды символических значений, их функции и использование в произведении, а также детали, представленные в романе, исследуются композиция произведения, его содержание, роль в освещении социально-политических вопросов, функция и виды детали в художественных произведениях.

Ключевые слова: Символ, искусство, свойство, символ, средство, деталь, деталь, предмет деталь, портрет деталь, речевая деталь, образ, символизм, состояние, выражение чувства.

Ma'lumki, adabiyotimizda ramziylik, ramziy obraz degan tushunchalar bor. U grekcha “symbolon” soʻzidan olingan boʻlib, qadimgi greklarda maxfiy tashkilot aʼzolarining bir-birini tanib olishi uchun qoʻllanilgan shartli belgini anglatadi. Badiiy adabiyotda ramz aniq tasavvur etish qiyin boʻlgan hodisa yoki tushunchalarni odamning koʻz oldiga yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi. Bu esa maʼlum bir jonli va jonsiz narsalar maʼno anglatishi demakdir. Shuningdek, ramziy maʼno — biror soʻz, obraz, predmet yoki hodisaning toʻgʻridan-toʻgʻri emas, bilvosita, yashirin, koʻchma maʼnoni anglatishidir. Bunda narsa yoki hodisa boshqa bir gʻoya, tushuncha yoki mazmunni ramz orqali ifodalaydi. Misol uchun: Oq atirgul — poklik, halollik ramzi. Qaldirgʻoch — kelajakdagi umid va bahor ramzi. Quyosh — hayot, yorugʻlik, ezgulik timsoli. Biz ramz orqali insonlarning xarakterini, ularning hozirda kechayotgan ruhiy holatlarini, hayot sinovlariga qanday bardosh berayotganliklari, ularda mavjud boʻlgan insoniy hislarni ifodlashamiz mumkin. Bunga misol tariqasida bizga maʼlum va mashhur boʻlgan yozuvchi Pirmqul Qodirovning “Olmos kamar” nomli romanida ham koʻrishimiz mumkin.

Bu roman Pirmqul Qodirovning eng mashhur asarlari sirasiga kiradi. “Olmos kamar” adabiyotda kam uchraydigan ekologik romanlardan biridir. Asar 1983-yil SSSR Yozuvchilar uyushmasining mukofotiga sazovor boʻlgan va 1987-yil vietnam tiliga tarjima qilinib, Xanoyeda chop etilgan. Asar tabiatning goʻzal tasvirlari bilan boshlanadi. Bosh qahramon Abrorning hayoti yaxshi. Bir qizi va bir oʻgli boʻladi. Kasbi arxitektor boʻlgan bu obraz oʻz sohasi boʻyicha yaxshi mutaxassis, olim boʻladi. Uning kursdoshi Sherzod ham arxitektor, yaxshi lavozim egasi edi. Biroq, u Abrordan qaysidir maʼnoda nafratlanadi. Sababi, Abror Sherzod talabaligida koʻngil bergan qizi Vaziraga uylangan edi. Sherzodning muhabbatini Vazira rad etadi. Shu tufayli Sherzod Abror bilan doim qarama-qarshiliklarga uchraydi. Abror Toshkentning Boʻzsuv kanalini tarixiy qismini saqlab qolishni xohlaydi, Sherzod esa barchasini buzib, uning oʻrniga yangi uylar qurishni yoqlab chiqadi. Va shu yoʻlda u Abrorni “mahalliychilik”, “maddohlik”, “eski urf-odatlariga sodiq qadimchi” kabi ayblar bilan ayblaydi. Abrorning ayoli Vazira ham hatto bir muddat uni shunday deb oʻylaydi. Sherzod hatto Abrorning ayolini ham yoʻldan urib, uning oilasini buzishga harakat qiladi. Ammo, Abror oʻzining ham, ukasining ham, qaynisi Alibekning oilasini ham

mustahkam saqlab qoladi. Asar oxirida Sherzodning asl qiyofasi ochilib, ichi qoraligi va manmanligi uchun jazosini oladi. Abror esa o'ziga xos ijobiy hislatlarga ega obraz sifatida gavdalanadi.

Asarning nomi ham alohida bir ramziylikka ega. Bu haqida asarning uchta joyida aytib o'tiladi. Birinchisi, Abror beliga olmos kamar bog'lagan - odam, ikkinchisi avlodlar orasidagi mehr-oqibat – olmos kamarning eng yirik gavhari, uchinchisi Bo'zsuv – ming yillardan beri Toshkentning belini baquvvat qilib turgan ajoyib bir olmos kamar. Shu o'rinda "Olmos kamar" birikmasiga to'xtalsak, olmos - juda qattiq, qimmatbaho, juda tiniq va yaltirab turadigan tosh. Ramziy ma'noda: qimmat, noyob, yuksak qadriyatni bildirishi ham mumkin. Kamar - belga taqiladigan belbog', tasma. Ba'zan tog' tizmasining bir bo'lagi (tog' etagi) ma'nosida ham ishlatiladi. Asliy ma'nosi: "olmosdan yasalgan kamar" – qimmatbaho, juda mustahkam va noyob buyum. Ramziy ma'nosi: juda qimmatli, muqaddas, milliy boylik yoki shaxsning eng aziz bo'lgan narsa degan tushunchani bildiradi. Asarda Abror juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi oilada, ishda, lekin u mana shu mustahkam kamari ya'ni irodasi bilan, matonati bilan qimmatli oilasi va sevimli kasbidagi qiyinchilik, muammolarni yengib o'tadi. Asarda oila ham olmos kamarga o'xshatiladi va qarindoshlar, avlodlar orasidagi mehr ana shu olmos kamarning qimmatbaho toshiga qiyos qilinadi. Bu ham bir ramziylikka ega ya'ni hayotimizda olmos narxi jihatdan qimmat ekanini bilamiz, qarindoshlar orasida mehr ham shunday qiymatga egadir. Bo'zsuv esa nafaqat Toshkent balki O'zbekiston uchun juda ham qimmatli bo'lgan anhordir. U hozirgacha aholini, ekinlarni tirikligini ta'minlamoqda. Shu o'rinda Olmos kamarning ramziy ma'nosini Abror va Pavil Danilovichning suhbatidagi " – Har bir xalq o'z qalbining eng qimmatbaho gavharini Toshkentning do'stlik xazinasiga keltirib qo'shibdi. – Ana shu ma'naviy gavharlar ulug' bir olmos kamarga aylanib, eng og'ir zilzila kunlaridan Toshkentni ichidan tutib turdi-da, Pavil Danilovich! Buni biz o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. – Bu kamardagi olmos qirralarning qanday musaffo nur sochishini men bugun sizning oilangizda, mana shu kichik davrada ham ko'rib turibman" kabi fikrlaridan ham bilib olishimiz mumkin.

Bundan tashqari asardagi tol tasvirini ham ramziylikka olishimiz mumkin: "bitta katta tol issiq paytda atrofidagi havoga o'nlab litr suvni mayda zarralarga aylantirib sochib turar ekan". Tabiiyki, issiq paytda suv barcha tirik mavjudotlarga huzur bag'ishlaydi, asarda Abror ham oilasining va ishxonasining issiq – qiyin kunlarida ularga tol kabi huzur bag'ishladi, beliga olmos kamarni bog'lagan holda qaynonasi, otasi, ukase, qaynog'asi, ayoli, kasbdoshlari, metro quruvchilarini jazirama kunlarida tayanch bo'ldi.

Asarning bu darajada ta'sirli va kitobxonlar uchun alohida bir qiymatga ega bo'lishida asarda mavjud bo'lgan uch xil mazmun sababdir. Birinchi yuqorida aytganimizdek Abrorda bor bo'lgan oila, insoniylik, mehr, muruvvat. Ikkinchisi Bo'zsuv kanali haqida biz bilmagan ma'lumotlar, uning o'sha davrda ham hozirda ham qanchalik ahamiyatli ekanini bildiruvchi

ma'lumotlar. Uchinchisi Toshkentning zilziladan keying qayta qurilishi, metrolar, istiroxat bog'lari, favvoralar qurilishi tasvirlangan manzaralar. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, asarning bunday tasvirlanishida badiiy detallarning alohida o'rni bor. badiiy detal (fr. detail - tafsilot, mayda-chuyda) - badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi g'oyaviy- badiiy yuk tashuvchi tafsilot bo'lib, hajm jihatidan asarda ko'p joyni egallamasligiga qaramasdan butun bir asar mazmuniga ta'sir ko'rsatadigan va yashirin ma'no tashiydigan birlikdir. Bu haqida Chingiz Aytmatov: "Badiiy asarda "mayda-chuyda", "ikir-chikir" degan tushunchalarga o'rin yo'q, eng kichik zarra – mikroelement ham asarda insoniylashar ekan, unga e'tiborsizlik qilgan yozuvchi insoniylikdan haqqoniy dars berishi, "xalqning o'qituvchisi", "tuyg'ular tarbiyachisi" bo'lishi mumkin bo'lmasa kerak" -deb ta'kidlagan. Badiiy asarlarda detallarning predmet detal, portret detal, nutqiy va ruhiyat detal kabi turlaridan ko'p foydalaniladi. Asarda "Boshqarma boshlig'ining muovini endi o'ttiz besh yoshlarha kirgan bo'lsa ham, peshanasining ustlarida sochi to'kilib, tepasi yaltirab qolgan, engagining chap tomonida kattagina qora xoli bor yigit edi", "Sariq junjunchadan kitel-shim, qo'ng'ir brezent etik kiygan oppoq mo'ylovi va kalta oq soqoli o'ziga yarashgan xipchabo'y, barvasta A'zam ota chopib kelayotgan nevarasiga intildi", "sersoch, qoramag'iz irrigator yigit" kabi portret detallardan foydalangan. Ushbu jummlar orqali muallif kitobxonga adabiy qahramonlarni yaqindan tanishi, aniq tasavvur qilishi uchun yordam bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. –Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
2. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
3. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
4. Qayumov Abduvahob. Detal va badiiy tasvir. O'zbek tili va adabiyoti. 2008/02.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: A. Qodiriy, 2004.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.